

MUSIQIY TA'LIMDA KREATIV YO'NDASHUV MASALASI

*Qulmatova Xurshida Abduraxmonova**Andijon mediata'lim mexnikumi musiqa fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola musiqa san'ati haqida bo'lib, musiqa sohasidagi kadrlarni kreativ bilimlarni egallashi, bu malakalarni egallahdagi muammolar va ularning yechimlari borasida muallif tomonidan fikr-muloxazalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa savodi, kreativ yo'ndashuv, xalq va bastakorlik musiqasi, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa.

KIRISH

Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi1. Farzandlarimizning qobiliyatini ruyobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizda yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi.

Iqtidorli yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni ijodiy kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratib berish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-may kungi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganligi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlantirishning ustuvor yo'nalslari bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi bosqichi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Milliy tarbiya barcha tarbiyaning asosidir. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan eng avvalo ta'llim tizimini isloh qilish, uni milliy-ma'naviy qadriyatlar negizida shakllantirish, jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, aqliy barkamol insonlarni tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratildi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Talaba-yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini kamrab olish ularning qiziqish va ijodiy izlanishlari uchun barcha bosqichda amaliy yordam - ko'mak berish ustoz va murabbiylarga katta vazifalar yuklaydi. Jumladan Prezidentimiz tomonidan olg'a surilgan tashabbusning birinchi asosiy bandida aynanb yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini rivojlantirish, ularning, iste'dodini yanada yuzaga chiqarishga hizmat qilinishi ta'kidlanganligi maqolani yaratishga turtki bo'ldi.

Shunday ekan, bugungi kunning musiqa o'qituvchisi o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish va darsni yangi pedagogik texnologiyalardan unumli hamda o'rinali foydalanishi, shuningdek, maqbul shakl, usul va vositalar yordamida tashkil etishi lozim. Jumladan: texnik vositalar, komp'yuter va boshqa musiqiy

cholg'ular uslublari, ko'rgazmali jihozlar, amaliy mashg'ulotlar, pedagogik va psixologik vositalar ilg'or o'qituvchining ilg'or tajribasi va mahorati hisoblanadi.

Kreativlik shaxsni yahlit holda yoki uni muayyan xususiyatlarini, zexni o'tkirligini tavsliflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorlilikning muhim omili sifatida aks etadi. Har qanday mutaxassislar bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativ qobiliyatga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlanib boradi. Bunda talaba Oliy ta'lim o'qituvchisi tomonidan o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun mashg'ulot davrida talabalar o'zaro mavzular yuzasidan muammoli masalalar yechishi, muammoli vaziyatlarni taxlil etishi, shuningdek, pedagogik harakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Talaba muammoli masala va vaziyatlarni hal qilish kerak ekan, ularning o'zaro masala yechishini topishga ijtimoiy yondashish, unda xissiy irodaviy sifatlarining rivojlanishiga yordam beradi. Pedagogik sohaga tayyorgarlik ko'rayotgan talaba kreativ sifatlarga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlarini, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy o'rgatishni ko'paytiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativ sifatlarga ega bo'lishlari, ularning o'quv va taxlil jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam bo'ladi. Ayniqsa, kreativ sifatlarga ega bo'lish o'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi ilg'or talabalarning o'quv faolligini shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishga faoliyk ko'rsatish, ilg'or pedagogic yutuq va tajribalarning mustaqil o'ganish, shuningdek, (hamkasblar) bilan pedagogik yutuq xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratiladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslariga doir fanlarni o'qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. Hozirgi musiqa o'qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar shaydosi va izlanuvchan, ijodkor bo'lib musiqa o'qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog'ilozim. Hozirda O'zbekistonning chekka qishloqlarida musiqa o'qituvchilari yetarlimi? Shunday bir markaz joylarda ham boshlang'ich musiqa darslari sinf rahbarlari tomonidan o'tilishi kuzatib kelinmoqda. Bunday hollarni bartaraf etish lozim. O'quvchilar musiqa darsini intiqlik bilan kutishadi va darsning musiqa savodi qismini ham o'qituvchi mahorat bilan o'tishi kerak. Lekin ko'p joylarda bunga ahamiyat berilmaydi yoki bunga o'qituvchining bilimi yetishmasligi sabab bo'ladi. Musiqa savodi faoliyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlanib mактабда chuqurlashtirib o'rgatiladi. Musiqa savodi musiqa ta'limi tizimidagi muhim jarayon hisoblanib, o'qituvchi bolalarga zarur musiqiy-nazariy bilimlarni, ma'lumotlarni berishi kerak. Musiqa savodiga doir olib boriladigan ish asosan bolalarning musiqiy o'quvini o'stirish va nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarning umumiyl musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiyl bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqanining mahalliy

uslublari, mumtoz musiqa) tashkil etadi. Musiqa savodi o'quvchilarda musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning asl mazmunini tushunib olishga yordam beradi, notaga qarab kuylash va ashula aytish malakalarini hosil qilish hamda garmonik qobiliyatni o'sishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga ovozlarni aniq talaffuz qilishga va jamoa bo'lib qo'shiq aytish sifatini, samaradorligini oshirishga qulaylik tug'diradi. Maktabda musiqa savodini o'rganishda qo'yiladigan asosiy metodik talab –dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda - qo'shiq aytish, musiqa tinglash va musiqaga ritmik jo'r bo'lishda qo'llay olishdan iborat. Har bir faoliyat bilan shug'ullanganda o'quvchilar kuylayotgan, jo'r bo'layotgan yoki tinglayotgan asarlarining kim tomondan yaratilganligi, qaysi ladda yozilganligi, asarning tempi, o'lchovi, ritmi, shakli, dinamik belgilari, tonligi va hokazolarni qisman bo'lsa ham aniqlashlari darkor. Mana shu jarayonda musiqa savodi benazir ko'makchidir.

XULOSA

Musiqiy-nazariy bilimlar ancha sayoz va bir tizimga solinmagan bo'lsa ham, o'qituvchi imkonи boricha darslarni ko'rgazmali qurollardan, o'qitishning zamонавиу texnik vositalardan foydalangan holda dars o'tishi maqsadga muvofiqdir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa musiqa madaniyati darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish orqali, kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi vositasida musiqiy madaniyatni tarkib toptirish. Musiqani san'at sifatida ongli idrok etish, undan ma'naviy ozuqa olishdan iborat bo'lib, o'quvchilarni Vatanparvarlik ruhida komil inson qilib tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. "Xalqimizning roziligi bizning foliyatimizga berilgan eng loyiq bahodir".
2. Karimova D.A. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. T. Iqtisod moliya. 2008. Usmonbayeva M. "Kreativ pedagogika". darslik, H. Omonov, N. Xo'jayev T., 2009.
Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash, o'quv qo'llanma, D.Namozova, T, 2018.